

## BO'LAJAK OFITSERLARDA MULOQOTCHANLIK XUSUSIYATLARINI EMPIRIK O'RGANISH NATIJALARI

*Alimardonov Zohid Shukurillaevich*

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash kafedrasи boshlig'i, p.f.f.d.(PhD), dotsent*

*Annotatsiya. Maqolada bo'lajak ofitser shaxsida muloqotchanlik xususiyatlarini rivojlanganlik darajasini empirik nuqtai nazardan o'rganilishiga bag'ishlanadi. Bunda bo'lajak ofitser shaxsida muloqot xususiyatlarini namoyon bo'lishini nazariy tahlili amalgalashirilgan. Shunga muvofiq kursantlarda muloqot xususiyatlarini o'rganish maqsadida tadqiqot ishlari olib borilib, zaruriy xulosalar shakllantirilgan.*

*Kalit so'zlar: muloqot, muomala, kursant shaxsi, suhbатdoshni tushunish, o'zaro munosabat, o'zini o'zi idrok etish, o'zaro tushunish, refleksiya, shaxslararo munosabatlar, shaxslararo chegaralar, muloqotdagi xabarlarning xususiyatlari.*

### РЕЗУЛЬТАТЫ ЭМПИРИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ ОСОБЕННОСТЕЙ ОБЩЕНИЯ БУДУЩИХ ОФИЦЕРОВ

*Алимардонов Зохид Шукурлаевич*

*заведующий кафедрой воспитательно-психологического обеспечения служебной деятельности Университета общественной безопасности Республики Узбекистан, кандидат педагогических наук, доцент*

*Аннотация. Статья посвящена изучению уровня развития коммуникативных качеств у будущего офицера с эмпирической точки зрения. Проведен теоретический анализ проявления коммуникативных особенностей личности будущего офицера. Соответственно, с целью изучения особенностей общения курсантов была проведена исследовательская работа и сформированы необходимые выводы.*

*Ключевые слова: общение, поведение, личность студента, понимание собеседника, взаимодействие, самовосприятие, взаимопонимание, рефлексия, межличностные отношения, межличностные границы, характеристики сообщений в общении.*

### RESULTS OF EMPIRICAL STUDY OF COMMUNICATION CHARACTERISTICS IN FUTURE OFFICERS

*Alimardonov Zohid Shukurillayevich*

*Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD), Associate Professor University of Public Security of the Republic of Uzbekistan*

*Abstract. The article is devoted to the study of the level of development of communication characteristics in a future officer from an empirical point of view. A theoretical analysis of the manifestation of communication characteristics in the personality of the future officer was carried out. Accordingly, in order to study the characteristics of communication in cadets, research work was conducted and the necessary conclusions were formed.*

*Key words: communication, treatment, personality of the student, understanding the interlocutor, interaction, self-perception, mutual understanding, reflection, interpersonal relations, interpersonal boundaries, characteristics of messages in communication.*

**KIRISH.** Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi, ta'limning yangi paradigmasi mazkur muammoni yangi, yanada kengroq mazmun bilan to'ldirishga xizmat qiladi. Jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishi kursantlari kommunikativ kompetentligining mohiyati va tuzilishini o'rganish o'zaro birbiriga bog'liq bo'lgan ikkita darajasini ajratib ko'rsatishga imkon beradi: birinchidan, kommunikativ kompetentlik bevosita muloqot jarayonida, inson xulq-atvorida namoyon bo'lishi; ikkinchidan, pedagogik kommunikativ qadriyatlar, kursant kasbiy motivatsiyasining yo'nalishi va o'ziga xos xususiyatlari hamda uning muloqotga bo'lgan ehtiyojini o'zi ichiga oladi. Shu o'rinda jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishi kursantlarining kasbini "kommunikativ" deb nomlash o'rini. Darhaqiqat, ularning faoliyati

amaliy ko'rinishga ega bo'lib, bu faoliyat asosini insonlar bilan samarali muloqot olib borish jarayoni tashkil qiladi. Mazkur kasbning muvaffaqiyati ko'p jihatdan kursantlarning shaxslararo o'zaro munosabatlari, insonlarning bir-birlarini idrok qilishi, muloqotga kirishuvchanlik kabi kommunikativ malakalarga bog'liq. Bundan tashqari ijtimoiy munosabatlar kuchayishi, muloqot maydonining kengayishi, shu bilan bog'liq aqliy faoliyatdagi ortiqcha yuklama muloqot jarayonidagi keskinlikni keltirib chiqaradi. Kommunikativ kompetentlikni yuqori darajada shakllanganligi kursant shaxsini jadal shaxslararo muloqot sharoitida yanada tayyor va himoyalangan qiladi.

METODLAR. Shuni ta'kidlash kerakki, kursantlarni muloqotga kirishga undaydigan motivlar, bиринчи navbatda, muloqotga bo'lgan ehtiyojning o'zi emas, balki kursantlarning yetakchi faoliyati vazifalari va u tomonidan amalga oshiriladigan aniq sharoitlar bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqadi. Universitet sharoitida kursantlarning yetakchi faoliyati o'quv va kasbiy faoliyat bo'lganligi sababli, shaxslararo muloqot motivlari uning nomidan vositachilik qiladi.

Tadqiqotning ishining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishi kursantlarida muloqot xususiyatlari qay darajada rivojlanishini tekshirishga harakat qildik. Buning uchun tanlab olingan sinaluvchilar guruhida "Muloqot xususiyatini diagnostika qilish (V.N.Nedashkovskiy) metodikasi" o'tkazildi.

NATIJALAR. Mazkur metodika bo'yicha olingan natijalar jadvalda ifodalandi.

### 1-jadval

#### Jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishi kursantlarida muloqot xususiyatlari o'rtasidagi interkorrelyatsion bog'liqlilik

Muloqot xususiyatlari	Suhbatdoshni tushunish qobiliyati	O'zini idrok etish va tushunish qibiliyati (refleksiya)	Shaxslararo chegaralarni qurish qobiliyati	Muloqotdagi xabarlarning xususiyatlari
Suhbatdoshni tushunish qobiliyati	1	0,57**	0,38**	0,51**
O'zini idrok etish va tushunish qobiliyati (refleksiya)	0,57**	1	0,44**	0,56**
Shaxslararo chegaralarni qurish qobiliyati	0,38**	0,44**	1	0,42**
Muloqotdagi xabarlarning xususiyatlari	0,51**	0,56**	0,42**	1

Jadvalda keltirilgan natijalarga ko'ra, suhbatdoshni tushunish qobiliyati o'zini idrok etish va tushunish qobiliyati (refleksiya) bilan ( $r=0,57$ ;  $p\leq 0,01$ ), shaxslararo chegaralarni qurish qobiliyati bilan ( $r=0,38$ ;  $p\leq 0,01$ ), muloqotdagi xabarlarning xususiyatlari bilan ( $r=0,51$ ;  $p\leq 0,01$ ) yuqori darajada ahamiyatli aloqadorlikdadir. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, kursantlar jamoasida suhbatdoshni tushunish ko'nikmasini rivojlanishi ularda o'zini va o'zgalarni idrok etishiga, ularni tushunish malakalarini ortishiga hamda fikrlarni ifodalashda shaxslararo chegaralarni inobatga olish malakalari bilan o'zaro bog'liq ekanligini ko'rismiz mumkin.

Sinaluvchilar guruhida o'zini idrok etish va tushunish qobiliyati (refleksiya) suhbatdoshni tushunish qobiliyati bilan ( $r=0,57$ ;  $p\leq 0,01$ ), shaxslararo chegaralarni qurish qobiliyati bilan ( $r=0,44$ ;  $p\leq 0,01$ ), muloqotdagi xabarlarning xususiyatlari bilan ( $r=0,56$ ;  $p\leq 0,01$ ) yuqori darajada ahamiyatli bog'liq ekan empirik tadqiqot natijalari asosida aniqlandi. Ma'lumki, kursantlar guruhida suhbat jarayonida o'zini idrok etish va tushunish hissining yuzaga kelishi ulardagagi muloqotning barcha xususiyatlari bilan ijobiy bog'liqlikka ega ekanligi qayd etildi.

Tekshiruv natijalariga ko'ra, shaxslararo chegaralarni belgilash qobiliyati suhbatdoshni tushunish

qobiliyati bilan ( $r=0,38$ ;  $p\leq 0,01$ ), o‘zini idrok etish va tushunish qobiliyati (refleksiya) bilan ( $r=0,44$ ;  $p\leq 0,01$ ), muloqotdagi xabarlarning xususiyatlari bilan ( $r=0,42$ ;  $p\leq 0,01$ ) yuqori darajada ijobiy bog‘liqlikka ega. Natijalardan ko‘rinadiki, kursantlarda muloqot jarayonida shaxsiy chegaralarni belgilab olish ularda suhbat chog‘ida o‘zini o‘zi adekvat idrok qilishga, sherigini fikrlarini tushungan holda munosabat bildirish malakasi rivojlanganligidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijalariga bo‘yicha, muloqotdagi xabarlarning xususiyatlari suhbatdoshni tushunish qobiliyati bilan ( $r=0,51$ ;  $p\leq 0,01$ ), o‘zini idrok etish va tushunish qobiliyati (refleksiya) bilan ( $r=0,56$ ;  $p\leq 0,01$ ), shaxslararo chegaralarni belgilash qobiliyati bilan ( $r=0,42$ ;  $p\leq 0,01$ ) yuqori darajada ijobiy bog‘liqlikka ega ekanligi kuzatildi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, kursantlar o‘rtasida amalga oshiriladigan muloqotdan ko‘zlangan asosiy maqsad ularda fan, tanlangan sohasiga nisbatan ma’lumot va axborotlar almashinishini nazarda tutadi va natijada tanlangan sohasiga mos kadrlar bo‘lib yetishishlariga zamin hozirlaydi.

**MUHOKAMA.** Harbiy jamoalarning birdamligi, ularda qonuniy tartibni saqlash, harbiy intizom talablariga rioya qilish, bir kishilik qo‘mondonlik va bo‘ysunish munosabatlar madaniyati darajasiga bog‘liq. Shuning uchun zamonaviy harbiy xizmatda odob-axloq va xizmatchilarning xulq-atvor madaniyati masalalariga katta e’tibor beriladi. Kursantlar jamoasining muvaffaqiyatlari o‘qishi va ishlashi uchun undagi munosabatlar muhim ahamiyatga ega. O‘zaro antipatiya va yoqtirishlar, muloqotning hissiyligi va jadalligi hamda o‘zaro ta’sirning boshqa shakllari kursantlar jamoasidagi munosabatlar samaradorligi va muloqot madaniyatiga turlicha ta’sir qiladi.

Harbiy oliy ta’lim muassasalari kursantlarining hayoti va faoliyatida shaxslararo muloqot muhim o‘rin tutadi. Bu ularning birgalikdagi hayotidagi eng muhim bo‘g‘in, butun ijtimoiy-psixologik hodisalar tizimining asosini tashkil etadi. Asosan kursant kelajakdagi ofitser sifatida yashaydigan va rivojlanadigan jamoaning ahloqiy va psixologik muhitini belgilaydi. Muloqotning har qanday deformatsiyasi o‘qish natijalariga, kursantlarning o‘zini o‘zi yaxshi his qilishiga va ularning harbiy-kasbiy shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Kursant jamoalarida shaxslararo muloqoti jarayonida axborot va ob’ektiv o‘zaro ta’siri, ularning bir-biriga hissiy va ixtiyoriy munosabati jarayoni sifatida tushuniladi. Bu murakkab, ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, har bir kursantning samarali birgalikdagi faoliyati va rivojlanishi uchun zarurdir.

Kursantlar tomonidan ma’lum maqsadlar uchun qilingan muloqotga mos keladigan natijalarga olib keladi, ammo ular kerakli natijalarga to‘g‘ri kelmasligi mumkin. Bundan tashqari, muloqot jarayonida boshqa, ko‘zda tutilmagan va maxsus rejalshtirilmagan hodisalar ham rivojlanadi va natijalar sifatida paydo bo‘ladi.

Kursantlarning shaxslararo muloqoti juda dinamik jarayondir. Kursantlar unga kirish uchun ma’lum motivlar bilan rag‘batlantiriladi. Ular o‘zlarining sheriklari / suhbatdoshlarning xulq-atvori va xatti-harakatlarini doimiy ravishda kuzatib borishlari va izohlashlari, ularga yetarli darajada javob berishlari, o‘zlarini nazorat qilishlari kerak. Bu keskin e’tibor, kuzatuv, tezkor aql, hamkasblarning xulq-atvorlarini oldindan taxmin qilish qobiliyati, tezkor qaror qabul qilishni talab qiladi.

Bu jarayonda bir-biridan farq qiladigan juda ko‘p sonli hodisalar mavjudligi shaxslararo muloqotning ma’lum bir tuzilishi mavjudligini ko‘rsatadi. Aksariyat tadqiqotchilar ushbu tuzilmaning asosiyлari idrok, axborot va interfaol komponentlar degan umumiy nuqtai nazarga ega.

Shu o‘rinda muloqotning tuzilishini bunday hisobga olgan holda, uning eng muhim elementi motivatsion-maqsadli komponenti ko‘zdan qochadi. Harbiy ta’lim muhitida ham, undan tashqarida ham muloqotga kirishib, kursantlar ham shaxsiy, ham ijtimoiy maqsadlarga intilishadi. Ular harbiy hayotning shartlari va talablaridan kelib chiqadi va muloqotning o‘ziga xos motivlari bilan belgilanadi. Muloqotning tabiatni, yo‘nalishi va boshqa ko‘rsatkichlarini aniqlaydigan motivlar mavjud. Ular insonning har qanday faoliyatida, shu jumladan, kommunikativ faoliyatida yetakchi o‘rinni egallaydi. Ularsiz muloqotning tarkibiy qismlarini hech biri vaziyatga mos ravishda talqin qilinishi va tushunilishi mumkin emas. Muloqotning motivlari va maqsadlari bir-biriga kuchli ta’sir ko‘rsatishi va bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligi sababli, muloqotning motivatsion-maqsadli tarkibiy qismi mavjudligini taxmin qilish maqsadga muvofiqdir. Uning mavjudligi kursantlarni muloqotga undaydigan ichki kuchlarni hisobga olish zarurligidan kelib chiqadi.

Ma’lumki, motivsiz va motivlashmagan muloqotning o‘zi mavjud emas. Psixologik adabiyotlarda ta’kidlanganidek, muloqot “maqsadli va motivatsion jarayonlar tizimi” dir. Shaxslararo muloqotning

mohiyatini aniqlash uchun, deydi G.M.Andreeva [1], “faqat kommunikativ aktning tuzilishini bilishning o‘zi yetarli emas. Shuningdek, muloqotga kirishuvchilarning motivlarini, ularning maqsadlari, munosabatlari va boshqalarni tahlil qilish kerak”. Empirik ravishda, hatto, bitta harbiy xizmatchining boshqasiga eng oddiy salomlashishi ham aniq sabab bo‘lmasa ham, ba’zilariga bog‘liq ekanligi barchamizga ma’lum. Ushbu komponentning mavjudligini tasdiqlovchi qo‘sishma dalil-bu psixologik tadqiqotlarda qayd etilgan muloqot motivlarining polisemiyasi va ko‘p qirraliligidir. Odatda, ob’ektiv faoliyatni tahlil qilishda, unga to‘sinqlik qiladigan ehtiyojning bir turi ajralib turadi. Muloqot polimotivativ xususiyatga ega. Uning motivlari nafaqat muloqotning o‘ziga bo‘lgan ehtiyoj bilan emas, balki turli xil ehtiyojlar bilan belgilanishi mumkin.

Hamkorlardan birining muloqot motivlari butun jarayonning tabiatini va mazmunini to‘liq aniqlay olmaydi. Kommunikativ o‘zaro munosabatlarga kirishib, kursant boshqa tomondan o‘zi kabi ongli odam bilan uchrashadi. U har doim ham unga mos kelmaydigan o‘ziga xos aloqa motivatsiyasiga ega.

O‘z ehtiyojlari, muloqotda tashabbus ko‘rsatadigan kursantning qiziqishlari:

kursantni muloqotda tashabbus ko‘rsatishga yoki ishtirok etishga undaydigan sherikning ehtiyojlari va qiziqishlari;

birgalikda hal qilinadigan vazifalar bilan bog‘liq ehtiyojlar.

Unga qarab, muloqot jarayoni turli xil natijalarga olib kelishi mumkin: chinakam do‘stona muloqotni o‘rnatishdan tortib, ba’zi kursantlar bilan muloqotga kirishmaslik yoki ular bilan ziddiyatli muloqotgacha.

XULOSA. Metodika natijalariga ko‘ra, jamoat xavfsizligini ta’minalash yo‘nalishi kursantlarida muloqot xususiyatlari o‘rtasida ahamiyatli ijobjiy aloqadorlik qayd qilinadi. Bu esa o‘z navbatida kursantlar jamoasini to‘laqonli rivojlanganligi hamda o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatatlarga nisbatan intilishlarni kuchli ekanligidan dalolat beradi.

Keltirilgan nazariy yondashuvlar va o‘tkazilgan empirik tadqiqotlarga asoslanib, quyidagi xulosalarni keltirib o‘tish maqsadga muvofiq:

-kursantlarda muloqotchanlik xususiyatlarini rivojlanishi ulardagi bilim darajasini oshishi, keng dunyoqarashga ega ekanligi hamda insoniy munosabatlар tizimiga faol kirisha olishlari bilan belgilanadi;

-kursantlarda muloqotchanlik xususiyatlari o‘rtasida yuqori darajada ijobjiy korrelyatsion aloqadorlik mavjudligi empirik tadqiqotlar asosida aniqlandi;

-muloqot xususiyatlarini kursant shaxsida samarali rivojlanishi ulardagi kasbiy faoliyatining talablari va shaxs sifatlari bilan uzviy aloqadorlikda bo‘lishi isbotlandi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOT

Андреева Г.М. Социальная психология –М.: Аспект-Пресс, 2019.– 363 с.